

Date: 23rd December-2024

**OILA PSIXOLOGIYASI BO'YICHA ILMIY TARAFDAN OLIB BORILGAN
TADQIQOTLAR**

Xudayberdiyeva Sevara

International school of finance technology and science instituti

Psixologiya va pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

xudayberdiyev@isft.uz

Boyquvatova Sohibjamol, Omonshukurov Shermaxmat

International school of finance technology and science instituti

2-kurs 23-PSD-03 guruhi talabalari

Annotatsiya. Mazkur maqola oila psixologiyasi fanidan psixologik xizmatni takomillashtirish konsepsiyasining ilmiy-amaliy va nazariy jixatlarini yoritishga yaratilgan.

Kalit so'zlar: psixologik xizmat, ijtimoiy psixologiya, yoshlar, oilalilar, nogironlar.

Аннотация: Данная статья создана с целью выяснения научно-практических и теоретических аспектов концепции совершенствования психологической службы со стороны науки семейной психологии.

Ключевые слова: психологическая служба, социальная психология, молодежь, семейные люди, инвалиды.

Abstract. The article covers the creation of family psychology, scientific, practical and theoretical aspects of the concept of improving the psychological service.

Keywords: psychological service, social psychology, youth, family people, disabled people.

Kirish

Respublikamizda amalga oshirilayotgan barcha isloxitlar sharoitida maxallada istiqomat qiluvchi har bir oila, har bir shaxsning uziga xos ijtimoiy-psixologik taraqqiyotini ta'minlash, maxallalardagi oilalarda ota-onalar, er va xotin, qaynona va kelin urtasidagi munosabatlarni yaxshilash, ular orasidagi nizoli, og'ir turmush sharoitini amaliy xal qilish mexanizmlarini joriy etish, ularga ko'rsatiladigan ijtimoiy-psixologik xizmatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha ilmiy asoslangan konsepsiyalarni ishlab chiqishga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada davlatimiz tomonidan jamiyatning kichik bo'g'ini bo'lgan oilalardagi ma'naviy sog'lom muxitni yaratishda maxallaning ta'sirini kuchaytirishga katta e'tibor qaratilayotgan davrda maxalla axolisining turli guruxlariga psixologik xizmat ko'rsatishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud. Oila -ijtimoiy institutlarning eng qadimgisidir. Insoniyat boshidan kechirgan tarixiy davrlarning qanchalik turfa va murakkab bo'lishiga qaramay, ayniqsa, XIX va XX asrlarda ro'y bergan buyuk o'zgarishlar va isloxitlarga dosh bera olgan ushbu maskan o'z tizimi, tarkibi va jamiyat oldida turgan majburiyatlarini bajarishi nuqtai nazaridan sog'-omon saqlanib qolgan tuzilmadir. Oilani insonlar tashkil etgani va undagi

**PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF
SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY.**
International online conference.

Date: 23rd December-2024



xayot-mamotni ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tashkil qilishini xisobga oladigan bo'lsak, uni sof psixologik jarayonlar maskani xam deb atash mumkin. Oilaning ijtimoiy institut maqomidagi faoliyatining ob'ektiv qonuniyatlarini, oila-nikox hamda qarindoshurug'chilik munosabatlarining mexanizmlari va turmush tarziga oid konkret vaziyatlarda oila a'zolari ijtimoiy qulkingin namoyon bo'lishini o'rganish dolzarb hisoblanadi. Ijtimoiy psixologiyaning amaliy tarmog'i sifatida nikoxga oid ustanovkalarni, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning - mexribonlik, g'amxo'rlik, hamdardlik, hamjixatlik, tobelik, bo'ysunish, yetakchilik kabi o'ziga hos qirralarini, oilaviy rollar taqsimoti va va o'zaro ta'sirning jinsga oid qonuniyatlarini, ota-onasi va farzandlar, yaqin qarindosh urug'lar o'rtasidagi xissiy- emotsiyonal bogliqlikni, oilaviy ro'zg'or yuritish va turmush tarzini tashkil etishga bog'liq bo'lgan psixologik jarayonlarning kechishini tadbih etish o'ta muhim. Oila inson hayotida eng muhim ijtimoiy va psixologik rolga ega. U nafaqat turmushning asosi, balki shaxsning hissiy va ruhiy rivojlanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Mustahkam oila qurish uchun a'zolar o'rtasidagi o'zaro muloqot, bir-birini tushunish va qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi. Ushbu maqlada oila psixologiyasining mohiyati, muammolari, ularni yengish yo'llari va sog'lom oilaviy munosabatlar qurish uchun zarur tamoyillar keng yoritiladi. Oila psixologiyasi oilaviy hayotning psixologik jihatlarini, shuningdek, a'zolar o'rtasidagi hissiy bog'liqlikni o'rganadigan sohadir. Bu soha oiladagi o'zaro munosabatlarning murakkab tizimini, rollar taqsimotini va har bir a'zoning o'z o'rnini qanday qabul qilishini tahlil qiladi. Oilaviy hayotning barqarorligi quyidagi omillarga bog'liq: Sevgi va hurmat — Oila a'zolari bir-biriga mehr-muhabbat ko'rsatishi va hurmat bilan yondashishi kerak. Emotsional bog'liqlik — Bir-birini tushunish va qo'llab-quvvatlash orqali ichki yaqinlikni shakllantirish muhim. Rollar va mas'uliyat — Har bir a'zo o'z mas'uliyatini his qilib, oilaviy majburiyatlarni bajarishi lozim. Oila nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy birlik, balki har bir kishining shaxsiy rivojlanishi va hayotiy ehtiyojlarini qondirish joyidir. Shu sababli, oilaviy psixologiya, o'z navbatida, nafaqat muammolarni aniqlash, balki ularni oldini olish va hal qilishga qaratilgan strategiyalarni ham o'rganadi. Oilada muloqotning ahamiyati Sog'lom oilaviy munosabatlarning poydevori muloqotdir. Oila a'zolari o'rtasidagi ochiq va samimiy suhbatlar bir-birini tushunishga yordam beradi. Ammo muloqotning yo'qligi yoki noto'g'ri shakllanishi kelishmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Oila ichidagi muloqotni samarali qilish uchun: Faol tinglashni o'rganing: Har bir a'zo o'z fikrini bildirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Baholashdan qoching: Tanqid yoki keskin fikrlar o'rniga tushunishga harakat qiling. Muammolarni ochiq muhokama qiling: Yuzaga kelgan qiyinchiliklarniyashirish o'rniga, ularni birgalikda hal qilishga intiling. Muloqot oilaning asosiy "oziqasi" bo'lib, u orqali ishonch, mehr-muhabbat va tushunish mustahkamlanadi. Oilaviy munosabatlarning madaniy xususiyatlari Oila har bir jamiyatda milliy qadriyatlar va madaniy urf-odatlar bilan chambarchas bog'liqidir. Madaniyat oilaning qanday shakllanishi, vazifalari va munosabatlar tizimiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan

Sharq oilalarida o'zaro hurmat, kattalarga itoat va bolalar tarbiyasida jamoaviy yondashuv muhim hisoblanadi.

PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY.

International online conference.

Date: 23rd December-2024

G'arb oilalarida shaxsiy erkinlik, individuallik va hamkorlik tamoyillariga asoslangan munosabatlar ustuvorlik qiladi.

An'anaviy oilalarda ota-onalar va farzandlar o'rtasida qat'iy rollar taqsimoti saqlanadi, zamonaviy oilalarda esa rollar moslashuvchanroq.

Madaniyat oila ichidagi muloqot uslubi, qarorlar qabul qilish jarayoni va tarbiya uslubiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli, oilaviy munosabatlarni rivojlanirishda milliy qadriyatlarni saqlab qolgan holda, zamonaviy yondashuvlarni ham inobatga olish lozim. Zamonaviy oilalarda psixologik masalalar bugungi kunda oila psixologiyasida zamonaviy muammolar alohida e'tiborni talab qiladi. Texnologiyalarning rivojlanishi, iqtisodiy bosim va ijtimoiy o'zgarishlar oilalarning turmush tarziga ta'sir qilmoqda. Asosiy muammolar quydagilardan iborat:

Oila va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik

Oila va jamiyat bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, birining rivojlanishi boshqasiga ta'sir ko'rsatadi. Jamiyat oilaning asosiy ijtimoiy muhitidir, oila esa jamiyatni tashkil etuvchi asosiy hujayradir. Bu o'zaro bog'liqlik quydagi jihatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

Muhokama

Yuqoridaqilardan kelib chiqib aytish mumkinki, oilalarga psixologik xizmat muammosi dunyoning qaysi davlatida bo'lmasin u yoki bu shaklda muayyan ilmiy-nazariy tamoyillarga amal qilgan holda hal qilinadi. Zero, insonga yoxud uning ruxiy va individual olamiga jiddiy e'tibor berilmas ekan biror bir davlat xam rivojlanmasligi tayin. Shu nuqtai nazardan O'zbekistonda ham aynan maxalla tizimi orqali axolining turli guruxlariga psixologik xizmatning tashkil etilishi va bu jarayonni Davlat darajasida qo'llab quvvatlanishi, jumladan, jamiyat va oilada soglom va barxaror ijtimoiy-psixologik muxit xanda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta'minlashning tashkiliy-xuxuxiy mexanizmlarini tubdan isloq xilish orxali maxalla institutining ichki ishlar organlari, boshxa davlat idoralari va jamoat tashkilotlari bilan uzlusiz, tizimli xamkorligini yulga xuyishi bilan boglix bir xator ishlarning bajarilishi maxallada psixologik xizmat tizimining uziga xos metodologik asoslarini yaratishda muxim urin tutadi. Bu urinda Uzbekistonlik olimlar (Shoumarov F.B, V.M. Karimova, E.R. G'oziev, Z.T. Nishonova, B.M. Umarov, N.S. Safoev, B.Rodirov, P.S.Ergashev, N.A. Soginov, R.A. Abdurasulov, U.D. Krdirov) raxbarligida olib borilayotgan ilmiy tadixixot natijalarining aloxida urni va axamiyati bor. Ushbu ilmiy natijalarga asoslanib Uzbekistonda maxallaga psixologik xizmat kursatishning uziga xos metodologik asoslari va ilmiy-amaliy yunalishlari yaratilmokdaki, bu yunalishlar Uzbekistonda axolining turli guruxlariga xizmat xiluvchi psixologik xizmat modelini yaratishda va bu modelni aynan maxalla institutlari orxali amaliyotdagi urnini belgilab berishda muxim

Xulosa Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida oilada psixologik xizmat ko'rsatish tizimi bilan bog'liq tajribalari, multimediali targibot konsepsiyalarining metodologik taxlili, ularning moxiyatini ifodalash; Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida multimediali texnologiyalarini takomillashtirishni dolzarb muammo sifatida tadbih etish. Oila

Date: 23rd December-2024

psixologiyasiga tegishli yangi multimediali modellarini yaratish va amaliyotga tatbih etish; axoli va yoshlarning oila bilan bog'liq ijtimoiy psixologik savodxonligini oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Baratova D.Sh. Maxallada psixologik xizmatnazariyasi va amaliyoti. //Monografiya. "Durdon". - Buxoro. - 2020. - 210 b.
2. Майерс Д. Психология / Д. Майерс: пер. с англ. И.А. Карпиков, В.А. Старовойтова. - 2 -е изд. - Mn.: Попурри, 2006.- 488с.
3. СлюсареваЕ.С., Козловская Г.Ю. Методы психологическое коорекцион учебно-методическое пособие. - Ставрополь, 2008.
4. О.Н. Истратова, Г.А.Широкова, Т.В. Эксакусто. Большая книга детского психолога, - Ростов н/Д: Феникс, 2008. - 568 с.